



## MAGNIY ELEMENTINING UMUMIY XUSUSIYATLARI VA AYOLLAR HOMILADORLIK VAQTIDAGI AHAMIYATI

*Turg`unov Zokirjon Alimjonovich*

*Namangan davlat universiteti tibbiyot fakulteti o`qituvchisi.*

*Ibrohimova Shodiya G`anixon qizi*

*Namangan davlat universiteti tibbiyot fakulteti*

*davolash ishi yo`nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada magniy (Mg) elementi, uning kimyoviy va biologik va fiziologiyasi xaqida so`z yuritilib, organizmdagi vazifasi , organizmga qanday ta`sir etishi xaqida so`z yurutilib, barcha organizmda va ayniqsa homilador ayollar hayotida nechog`lik o`rni katta ekanligi yaqqolroq tushuntirib berishga xarakat qilingan.Magniy yetishmasa nafaqat homilador ayollar va ularning farzandlari organizmda ham keyinchalik salbiy oqibatlarga olib keladi.

**Kalit so`zlar:** Devi; Amalgama; Dolomit; Forsterit; Karnalit; Implantatsiya; Bachadon tonusi; Yo`ldosh erta qarishi; Kislarod yetishmovchiligi

(Magnesium), Mg — Mendeleyev davriy sistemasining II guruhiga mansub kimyoviy element; ishkoriy - yer metallarga kiradi. Tartib raqami 12, atom massasi 24,305. Tabiiy Magniy 3 ta barqaror izotopdan iborat. 24Mg (78,60%), 25Mg (10,11%), 26Mg (11,29%). Magniyni 1808 yil dastlab ingliz fizigi Magniy Devi amalgama holida olgan.. Magniyning 100 dan ortiq minerallari bo`lib, ulardan dolomit, forsterit yoki olivin, magnezii, karnallit va boshqa ahamiyatlidir. Olivin jinslarining yuvilishidan ilonizi serpentin minerali hosil bo`ladi. Tula parchalanganda esa magnezit ( $MgCO_3$ )ra o`tadi. Ohaktoshlar  $MgCl_2$  eritmalarini ta`sirida dolomitga  $MgCa(CO_3)_2$  aylanadi.

Inson organizmi faoliyatda magniyning ahamiyati katta. Uning ko`p qismi suyak to`qimalari tarkibida bo`ladi. Qon plazmasida, eritrotsitlar va yumshoq to`qima tarkibida bu element asosan ionlashgan holda uchraydi. Shuningdek, uning ko`pgina qismi yana oqsillar, ayniqsa ferment oqsillari bilan bog`langan. Agar hayvonlar magniy tuzlari bo`lmagan ozuqa bilan boqilsa, ularning yurak faoliyati izdan chiqadi, ya`ni tirishish kasalligiga uchrab nobud bo`ladi.Ichak qon tomirlari devorlarida, yurak va suyak muskullarida magniy yetishmasa, ularda kalsiy ko`payishi tajribalarda aniqlangan. Kishi organizmining magniyyiga bo`lgan extiyoji asosan oziq-ovqat mahsulotlari hisobiga qondiriladi. Ayniqsa, homiladorlar va emizikli ayollar



organizmining magniyga bo‘lgan ehtiyoji kuchli. Katta yoshdagi kishilar bir kunda 500 mg, homiladorlar 925 mg, emizikli ayollar 1250 mg, 3 yashargacha bolalar 140 mg, 14-17 yashargacha bolalar 530 mg magniy iste’mol qilishlari lozim. Oziq – ovqat mahsulotlaridan loviya, suli, grechka yormasida, no‘xatda va boshqa dukkakli mahsulotlarda magniy ko‘p bo‘ladi.

Homilador ayol uchun barcha vitamin va minerallar me’yorida zarur. Chunki tug‘ilajak bolaning salomatligi aynan bu bilan bog‘liq. Homiladorlik davrida ona va bola o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydigan maxsus a’zo – yo‘ldoshni shakllanishida ishtirok etadi. Yo‘ldosh to‘qimalarida bir qator muhim jarayonlarni boshqaradigan 100 dan ortiq magniyga bog‘liq oqsillar mavjud. Bachadon va yo‘ldosh – magniy miqdori eng yuqori bo‘lgan a’zolardir. Implantatsiya – homilani boshlang‘ich davrida bachadonga joylashishi jarayonidagi muhim elementdir. Homilaning to‘qimalari shakllanishi va asab tizimlari rivojlanishi uchun murakkab kimyoviy reaksiya va sintez jarayoniga kerak. Homiladorlarni stressga chidamliligini oshirishga yordam beradi. Bachadon tonusini tartibga soladi.

Magniy yetishmaganda esa mushak tizimida tortishlar – bel va oyoqlarda og‘riq, ko‘pincha boldir sohasidagi tortishish, odatda ular tunda ayolning oyoqlari uzoq vaqt bir holatda bo‘lganda namoyon bo‘ladi. Bachadon tanasida, bo‘yincha sida tortishishlar, mushaklar tonusi oshishi – bu qorinning pastki qismida og‘riqlar bilan kechadi. Asab tizimi – asabiylilik, jizzakilik, ko‘z yoshlari, tez-tez kayfiyat o‘zgaradi, diqqat, xotira va uyqu yomonlashadi. Ba’zida tushkunlik paydo bo‘ladi. Yurak-qon tomir tizimi – qon bosimi, bosh aylanishi va bosh og‘rishi kabi belgilar paydo bo‘ladi. Suyuqlik almashinushi buzilishi natijasida oyoqlarda shish paydo bo‘ladi va qon aylanishi yomonlashadi. Yurak tez-tez urishi, aritmiya, yurak sohasida sanchiqlar paydo bo‘lishi mumkin. Hazm qilish tizimi – ko‘pincha qabziyat va metiorizm – qorin dam bo‘lishi kuzatiladi. Yo‘ldoshning erta qarishi – tarkibida petrififikatlar paydo bo‘lishi, bolada gipoksiya – kislorod yetishmasligiga olib keladi. Homiladorlikning birinchi haftasidan boshlab ayolning ehtiyoji vitamin B6 va magniyga bir yarim barobar ko‘payadi. Homiladorlik paytida magniyga bo‘lgan talab faqat bolani katta bo‘lishi hisobiga emas, balki bachadon massasini 100 grammdan 1000 grammgacha bo‘lishi, qon miqdorini 25-30 foizga oshishi, sut bezlarini ko‘payishi, estrogen va aldosteron gormonlarining darajasini oshishi bilan ham bog‘liq. Oziq-ovqat mahsulotlaridan kerakli miqdorda magniy va B6 vitaminini olish har doim ham mumkin emas. Shu bilan birga, metabolik jarayonlar buziladi, immunitet tizimi azoblanadi va qon tomirlarining tonusi o‘zgaradi, bu esa qon bosimining sakrashiga olib keladi. Magniyning yetishmasligi tug‘ilmagan chaqaloq



uchun ham xavflidir, bu intrauterin rivojlanishning kechikishi va patologiyasini keltirib chiqaradi .

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Yu.U.Ovchinnikov “Bioorganicheskaya ximiya” M.Prosvesheniya 1987yil
2. Rumyantsev G.I., Proxorov N.I., Novikov S.M. va b. “Gigiena” Uchebnik dlya vuzov, Moskva. GEOTAR-Media. 2009 g.
3. O`zME.birinchi jild Toshkent 2000yil
4. ziyo.uz sayti
5. Namdu.uz sayti